



UMUMTA'LIM MAKTABLARI MUSIQA MADANIYATI DARS MASHG'ULOTLARIDA TA'LIM VA TARBIYA MASALALARI

Tuychiboyev Dilmurod Tursunboy o'g'li

Namangan tumani 60-sonli umumta'lim maktabi o'qituvchisi

tuychiboyevdilmurod750@gmail.com

Anotatsiya:

Ushbu maqola umumiy ta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida ta'lim va tarbiya masalalarini chuqur tahlil qiladi. Musiqa madaniyati darslarining o'quvchilarning estetik didini shakllantirish, milliy va jahon musiqa madaniyatiga bo'lgan qiziqishini oshirish, musiqiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishdagi ahamiyati ta'kidlanadi. Maqolada musiqa madaniyati darslarida ta'lim va tarbiya masalalarini ikki tomonlama tahlil qilinadi.

Kalit soz'lar: Madaniyat, ta'lim, tarbiya, estetika, etika, texnologiya, metod, usul, vosita, pedagogika, janr, odob axloq, interaktiv.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ И ВОСПИТАТЕЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ НА УРОКАХ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Туйчибоев Дилмурод Турсунбой оглы

Учитель общеобразовательной школы № 60, Наманганской области

tuychiboyevdilmurod750@gmail.com

Аннотация:

В статье представлен глубокий анализ образовательных и воспитательных проблем на уроках музыкальной культуры в общеобразовательных школах. Подчеркивается значение уроков музыкальной культуры в формировании эстетического вкуса учащихся, повышении их интереса к национальной и мировой музыкальной культуре, развитии музыкальных знаний и навыков. В статье представлен двусторонний анализ образовательных и воспитательных проблем на уроках музыкальной культуры.



Ключевые слова: Культура, образование, воспитание, эстетика, этика, технология, метод, способ, средства, педагогика, жанр, этикет, интерактив.

EDUCATIONAL AND EDUCATIONAL ISSUES IN MUSIC CULTURE LESSONS IN GENERAL SCHOOLS

Tuychiboyev Dilmurod Tursunboy oglu

Teacher at Namangan district secondary school No. 60

tuychiboyevdilmurod750@gmail.com

Annotation:

This article provides an in-depth analysis of educational and educational issues in music culture lessons in general schools. The importance of music culture lessons in forming students' aesthetic taste, increasing their interest in national and world music culture, and developing musical knowledge and skills is emphasized. The article analyzes educational and educational issues in music culture lessons from two perspectives.

Keywords: Culture, education, upbringing, aesthetics, ethics, technology, method, method, means, pedagogy, genre, etiquette, interactive.

Musiqqa madaniyati darsi - bu o'quvchilarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning estetik didini shakllantirish, milliy va jahon musiqqa madaniyatiga bo'lgan qiziqishini oshirishga qaratilgan muhim fan. Biroq, musiqqa madaniyati darslari faqat bilim berish bilan cheklanmasdan, o'quvchilarni tarbiyalashda ham muhim rol o'ynaydi.

Umumta'lim maktablari musiqqa madaniyati dars mashg'ulotlarida ta'lim masalalari quidagilarni o'z ichiga oladi: Musiqiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish: O'quvchilarga musiqqa asboblari, musiqqa notasi, musiqqa janrlari, musiqqa tarixi, kompozitorlar haqida bilim berish. Musiqiy tinglash va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirish: O'quvchilarga musiqqa asarlarini tinglash, tahlil qilish va baholashni o'rgatish. Musiqiy ijodkorlikni rivojlantirish: O'quvchilarga o'z musiqalarini yaratish, qo'shiq aytish, musiqqa asboblari o'ynash imkoniyatini yaratish. Musiqqa



tarixi va madaniyatini o'rganish: O'quvchilarga milliy va jahon musiqa madaniyatining tarixi, rivojlanishi, xususiyatlari va ahamiyati haqida ma'lumot berish.

Musiqa madaniyati dars mashg'ulotlarida tarbiya masalalari quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

O'quvchilarning go'zallikni anglash, musiqa asarlarining estetik qiymatini baholash qobiliyatini rivojlantirish:

Musiqa asarlari orqali o'quvchilarga axloqiy qadriyatlarni, vatanparvarlik, insoniyat, mehr-muhabbat, do'stlik kabi tuyg'ularni singdirish:

Milliy musiqa asarlari orqali o'quvchilarga vatanparvarlik tuyg'ularini, milliy madaniyatga bo'lgan hurmatni shakllantirish:

Musiqa orqali o'quvchilarni jamoaviy ishlashga, bir-birlarini hurmat qilishga, o'zaro muloqot qilishga o'rgatish:

Musiqa asarlari orqali o'quvchilarning tasavvurini boyitish, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish:

Musiqa madaniyati darslarida ta'lim va tarbiya masalalarini samarali hal qilish uchun quyidagi usullar qo'llanilishi mumkin:

Musiqa madaniyati dars mashg'ulotlari davomida turli xil o'quv usullaridan foydalanish dars samaradorligini xamda o'quvchilar faolligini oshiradi. An'anaviy o'quv usullaridan tashqari, o'yinli o'quv usullari, interaktiv o'quv usullari, loyiha usullari, amaliy mashg'ulotlar, musiqa asarlarini tinglash va tahlil qilish, musiqa asboblari o'ynash kabi usullardan foydalanish darsning qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi[5].

Bundan tashqari mashg'ulotlar davomida zamonaviy texnologiyalardan Kompyuter dasturlari, audio va video materiallar, internet resurslari, multimedia taqdimotlari kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darsning ko'rgazmalilik qismini boyitadi.

O'quvchilarni jalb qiladigan, ularning qiziqishini oshiradigan musiqa asarlarini tanlash, ijro etiladigan asarlarning notalarini tarqatish o'quv jarayonini qiziqarli tashkil qilish uchun samarali vosita sifatida xizmat qiladi.



Dars davomida darsdan tashqari paytlarda o'quvchilarni jamoaviy ishlashga, bir-birlariga yordam berishga, o'zaro muloqot qilishga o'rgatish o'qituvchining yana bir eng asosiy vazifalaridan biri xisoblanadi.

O'quvchilarga o'z musiqalarini yaratish, qo'shiq aytish, musiqa asboblarida o'ynash imkoniyatini yaratish xamda ta'lim muassasasida ularga ijodkorlikni oshirish uchun keng imkoniyat yaratish musiqa madaniyati fanining qadr qimmatini oshiradi.

Musiqa madaniyati darslarida ta'lim va tarbiya masalalarini samarali hal qilish o'quvchilarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning estetik didini shakllantirish, milliy va jahon musiqa madaniyatiga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning axloqiy, vatanparvarlik va ijtimoiy tarbiyasini shakllantirishga yordam beradi.

O'zbek xalqining musiqa madaniyati qadimiy va boy merosga ega. Uning mazmunida xalqimizning milliy ruxiyati, oliy insoniy fazilatlari, badiiy ma'naviyati, istiqloq va mustaqillik uchun kurashi hamda orzu-umidlari yorqin ifodasini topadi. Shuningdek o'zbek musiqasi ta'lim-tarbiyasi uslubiyotiga doir mukammal maktablar shakllangan[7].

Yosh avlodni kamolot sari yetaklashda tarbiyani ko'plab omillari qatori musiqa tarbiyasi alohida o'rin tutadi. Musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, insonni atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. Musiqa inson ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, uni nafosat olamiga olib kirish va axloqiy g'oyaviy tarbiyalashni muhim vositasidir. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va unga ma'naviy ozuqa beradi.

Donishmand xalqimiz azaldan kuy va qo'shiqni bola qalbiga tez yo'l topa olishi, uning ruhiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, yaxshi xulq va odob, mehr oqibat, sabr-toqat, kattalarga hurmat fazilatlarini musiqa orqali tarkib topishini azaldan anglab yetgan. Oilada farzandni qo'shiq aytishga, so'z chalishga o'rgatish ota-ona orzusi hisoblangan. Bola musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, musiqadan umrbod ozuqa oladi. Chunki bola hali yurishni, so'zlashni bilmay turib, musiqani eshitib, turli qo'l harakatlari bilan musiqaga munosabatini bildiradi. Shuning uchun azaldan har bir oilada musiqa cholg'u asboblaridan dutor, doira, rubob saqlash urf-odat bo'lib qolgan. Musiqadan ozuqa olish uchun esa, inson sof qalb egasi, yuksak ma'naviyatli,



go‘zallikni his eta oladigan inson bolishi kerak. Xalqimiz kelajagi mustaqil O‘zbekistonning istiqboli ko‘p jihatdan o‘qituvchiga uning dunyoqarashiga, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash ishiga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq[2].

Milliy an‘anaviy musiqa pedagogikasida quyidagi musiqa ta‘lim-tarbiyasi uslubiyotlari mavjud:

1. Ommaviy xalq musiqa pedagogikasi. Bu xalqning kundalik hayotida, oilaviy marosim, mehnat jarayoni va boshqalarda o‘z ifodasini topib, tabiiy ravishda va beixtiyor amalga oshirilib boriladi. To‘y-hashamlarda, ta‘ziralarda musiqaning ommaviy janrlari yakka va jamoaviy tarzda ijro etiladi. Shu jarayonda yangi kuy hamda qo‘shiqalar vujudga keladi. Bu esa xalqning badiiy musiqiy rivojida, musiqa merosimimizni boyitishda, ayniqsa yosh avlodni axloqiy-badiiy tarbiyalashda bebaho omil hisoblanadi.

2. Kasbiy musiqa ta‘limi uslubiyoti mukammal maktabga ega. Uning amaliyotida ta‘limning ilmiyligi, davomiyligi va izchilligi mantiqan bog‘langan. Ta‘lim mazmuni kasb fazilati va nafosati hamda sharqona axloqiy tarbiya tufayli boydir. Bunda ustoz-shogird amaliyotida ustozni tajribada ega ekanligi ayniqsa, mohir ijrochiligi va ma‘naviy boyligi muhim rol o‘ynaydi. Yosh san‘atkorlar yillar davomida musiqani nazariy va amaliy mukammal o‘rgangandan so‘nggina xalq xizmatiga bel bog‘lashga, ustozlar oq fotihasini olganlar. Kasbiy musiqa ustozligida mohir ijrochilar- cholg‘uchilar-xalfalar, dostonxonlar va maqomchilar uetishib chiqadi. Ayni holda ularning ko‘pchiligi bastakorlik ilmidan ham saboq olib, musiqa merosimimizni boyitib kelmoqdalar[3]. Xalq va kasbiy musiqa pedagogikasi amaliy o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bir-birini boyituvchidir.

3. Milliy musulmon maktablari va madrasalarida musiqa falsafa ilohiyot va adabiyot ta‘limi bilan uyg‘un tarzda bog‘lanib o‘qitiladi. Bu ko‘proq savod chiqarish va Qur‘oni Karim suralarini qiroat qilish jarayonida yakka, guruhli va jamoaviy talaffuz ifodaliligi va musiqiy ohangdorligi (aniq-burroligi, mantiqiyiligi, tovush hosil qilish, nafas tartiblari v.b.) ustida muayyan usullarni qo‘llab ish olib boriladi.

Musiqa ta‘lim-tarbiyasining yangi Kontsepsiyasiga asosan musiqa ta‘lim-tarbiyasi maqsadi – yosh avlodni milliy musiqa merosimizga vorislik qilib, umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan hamda qadrlaydigan madaniyatli inson



darajasida voyaga yetkazishdan iboratdir. Buning uchun har bir o'quvchining musiqiy iqtidorini rivojlantirib, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqini oshirish, musiqadan zaruriy bilim, amaliy malakalar doirasini tarkib toptirish, iqtidorli o'quvchilarning musiqiy rivojlanishlari uchun zaruriy shartsharoitlar yaratib berish-maktab musiqa ta'lim-tarbiyasining asosiy vazifasidir[6].

Mazkur oliy maqsad va vazifani amalga oshirishda «Musika» faniga ijtimoiy rivojlantiruvchi omil sifatida qarash, muammolarni hal etishda keng o'qituvchilar ijodiga tayanish, musiqa o'qitish uslubiyotini har tomonlama ilmiymetodik izlanish natijalari va ilg'or tajribalar asosida takomillashtirish asosiy vazifa hisoblanadi. Musika ta'lim tarbiyasi Kontseptsiyasining 3-bobi «Musika ta'lim-tarbiyasida mazmuni, tuzilishi va tabaqalanishi» deb nomlanadi. Musika sabog'i tarbiyalovchi, shaxsning badiiy tafakkurini shakllantiruvchi ta'lim sifatida muhimdir. Uning vositasida nafasat hissiyotlarini tarbiyalash bilan birga yosh avlodda oliy insoniy fazilatlarini tarkib toptirish nazarda tutiladi. Bunda milliy va umumbashariy musiqa ta'limshunosligi hamda o'qitish uslubiyotiga tayanish lozim bo'ladi[4].

Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati dars mashg'ulotlari o'quvchilarning estetik didini shakllantirish, ma'naviy dunyosini boyitish va milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Musika fani orqali bolalarda nafaqat ijrochilik ko'nikmalari, balki Vatanga sadoqat, insonparvarlik, mehnatsevarlik, go'zallikka intilish kabi yuksak fazilatlar shakllanadi.

Ta'lim jarayonida qo'shiqlarni kuylash, musiqa asarlarini tinglash, ritmik harakatlar bajarish hamda milliy cholg'ular bilan tanishish orqali o'quvchilar musiqiy tafakkur va eshitish qobiliyatini rivojlantiradilar. Shu bilan birga, ularning ijodiy faolligi, mustaqil fikrlashi va jamoada ishlash malakalari mustahkamlanadi.

Tarbiya jihatidan esa, musiqa madaniyati darslari o'quvchilarda milliy g'urur, madaniyatimizga hurmat, xalq og'zaki ijodi va bastakorlik an'alariga mehr uyg'otadi. Bu darslarda xalq qo'shiqlari, mumtoz asarlar va zamonaviy musiqiy namunalarni uyg'un qo'llash o'quvchilarning ma'naviy barkamolligini ta'minlaydi. Xulosa qilib aytganda, musiqa madaniyati darslarida ta'lim va tarbiya masalalarini uyg'unlashtirish — yosh avlodni har tomonlama yetuk, estetik jihatdan rivojlangan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur anglay oladigan shaxs sifatida kamol toptirishning eng samarali vositasidir[5].



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son.;
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-sonli qarori. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.02.2022-y., 07/22/112/0099-son; 04.12.2024-y., 07/24/399/1000-son
4. Karimova D., Yakubova Sh. “Bolalar musiqa asarlari ustida ishlash” Toshkent-2016;
5. Миршаев, У. М., & Миршаева, Д. А. (2020). Роль народных песен в нравственном воспитании учащихся. Проблемы педагогики, (3 (48)).
6. M.Mavlonova, O.To‘raeva, K.Xoliqberdiev. Pedagogika. T. «O‘qituvchi», 2001
7. R.J.Ishmukhammadov. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. T.Nizomiy nomidagi TDPU, 2004 yil.
8. Karimova D., Yakubova Sh. “Bolalar musiqa asarlari ustida ishlash” Toshkent-2016; Umumta’lim maktablarining musiqa darsliklari (1-5 sinflar).